

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19637666>

Nusratova Khamida Chuliboyevna

Associate Professor

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Uzbekiston

Tel: 78 129 40 40 (183) Mob.: +998 90 718 29 23

e-mail: hamidanusratova5@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ yondashuv bilan topshiriqlarni tayyorlash tizimini joriy etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini rivojlantirish uchun uzluksiz ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, muamolarini yechish, loyihalar ishlab chiqish va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlardan foydalanish, lingvistik va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Annotation

This article presents effective ways to implement a system for preparing assignments with a creative approach for elementary school students, develop continuing education programs aimed at developing the creative abilities of elementary school students, use innovative methods aimed at developing students' skills in independent thinking, problem solving, project and presentation development, and developing language and speech skills.

Аннотация

В данной статье представлены эффективные способы внедрения системы подготовки заданий с творческим подходом для учащихся начальной школы, разработки программ непрерывного образования, направленных на развитие творческих способностей учащихся начальной школы, использования инновационных методов, направленных на развитие у учащихся навыков самостоятельного мышления, решения проблем, разработки проектов и презентаций, а также развития языковых и речевых навыков.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ yondashuv bilan topshiriqlarni tayyorlash tizimini joriy etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini rivojlantirish uchun uzluksiz ta'lim dasturlarini ishlab chiqish,

o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, muamolarini yechish, loyihalar ishlab chiqish va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

O'quvchilar intellektual, ijodiy - kreativ faoliyati katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, u barkamol avlodning bazaviy sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishning omilidir. Zero, intellektual-ijodiy rivojlanish shaxsning ma'naviy sohasi bilan bog'liq. Bugungi kunda butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonida har bir sohada ilg'or ishlar amalga oshirilmoqda buni zamonning o'zi talab etmoqda. Yosh avlod har sohada ildam, chunki jamiyatimiz axborot oqimiga boy, har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab yetishtirish pedagoglarning eng oliy maqsadlaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, kreativlik shaxs samarali faoliyatini ta'minlovchi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv o'quvchilar bilim o'zlashtirish sifatini ularning ijodiy faoliyati asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi hisoblanadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining mazmunini aniqlash talab etiladi. Kreativlik so'zi inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini beradi¹. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan qaray olishni anglatadi. Kreativlik-individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. O'qituvchining ham

¹.Vartanova E.L Axborot jamiyatining milliy modellari / Resp. ed va komp,2015-yil <https://ru.wikipedia.org>

dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda – bir xillikdan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jalb etish va qiziqtirish o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash, rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur.

Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o'zida "O'quvchi shaxsi"ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlar va usullarni qo'lash mumkun bo'ladi.

1. Muammoli vaziyatlar yaratish: - Bolalar uchun to'g'ridan-to'g'ri yechimi bo'lmagan muammoli vaziyatlarni yaratish.

2. Aqliy hujum va assotsiatsiyalar: - Boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy hujum qilishga undash, ular tomonidan keltirilgan har bir g'oyani e'tiborga olish. Assotsiatsiyalar orqali yangi g'oyalar topishga yordam berish.

3. Eksperimentlar o'tkazish: - Boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli eksperimentlar o'tkazishga undash. Masalan, turli materiallar bilan yangi buyumlar yasash. Eksperimentlar jarayonida o'rganilganlarni tahlil qilish va yangi yechimlar topish.

4. Ijodiy topshiriqlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli ijodiy topshiriqlar bajarishga undash. Ularning fikrlari va yechimlarini qadrlab, rag'batlantirish.

5. Loyihalar: - O'quvchilar bilan turli loyihalar ustida ishlashga undashva ushbu loyihalar ustida amallar bajarish jarayonida yangi g'oyalar keltirib chiqarish. Ushbu yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kreativ tafakkurni rivojlantirish va rag'batlantirishga yordam beradi. Bunda o'qituvchilarning roli juda muhimdir.

Fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik - o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa - ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir. V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan².

O'quvchilar nutqini rivojlantirish qonuniyatlari. Ma'lumki, bolaning nutqi til qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o'zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Shunday qilib, til va nutq o'quvchilarning psixologik rivojlanishi hamda dastavval xotirasi, fikrlashi, idrok etishi, hissiyot va ehtirosini ta'minlaydigan ikkita muhim vositadir.

Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari: til, nutq, nutqiy faoliyat. Til - bu ijtimoiy hodisadir. Til tafakkur bilan monand bog'langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning ehuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning nutqiy savodxonligini rivojlantirish o'qituvchining nutqiy faoliyatga qanchalik faol jalb etishiga va kreativ kompetentligiga bog'liq³. Shu sababli nutq inson fikrlarini ifoda etishning asosiy vositasi bo'lib, bolalarda nutq kichik yosh davrlaridanoq shakllansa, o'quvchilarda shakllangan nutq

²Babayeva.D.R "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi"(Darslik). -T.: "Barkamol fayz media", 2018-yil 12-bet.

³ Babayeva.D.R Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). -T.: "Barkamol fayz media", 2018, 56-bet.

rivojlantirilib yanada boyitilib boriladi va me'yoriy qoliplar asosida bir tizimga solinadi. Hozirgi kunda nafaqat bolalar balki katta yoshdagi shaxslar ham o'z nutqini ifodashdagi kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. Bunga sabab esa hayajon, ko'pchilikni oldida nutq so'zlay olmaslik, doimiy ravishda nutqiy savodxonligini rivojlantirmaganligi va so'z boyligining kamligi kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Lekin har bir so'zni ham so'z sifatida qo'llab bo'lmaydi. O'quvchilarda ko'pincha so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolar uchrab turadi. Bunday xatolarni qilmaslik uchun o'quvchilarga pedagoglar so'zlarning lug'aviy ma'nolarini o'rgatib borishi zarur. So'z ma'nolarini doimiy ravishda tushuntirib, o'rgatib borish o'quvchilarda so'zni to'g'ri qo'lash malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarda lug'at boyligining boyishiga, so'zlarni ma'nosiga qarab nutq jarayonida to'g'ri va aniq qo'llay olishga o'rgatadi. Bolalar lug'at boyligi yaxshi rivojlangan bo'lsa, so'zlarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasi shakllangan bo'lsa, nutq operatsiyasiga kirishishga qiynalmaydi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda kreativlikning nazariy hamda amaliy ahamiyati oshib bormoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ o'qitish orqali o'quvchilarda yangiliklarga intilish, muammolarni hal qilish o'z fikrini erkin tarzda bayon qila olish, yangi g'oyalarni yaratish kabi imkoniyatlarni beradi.

Kreativ-o'qitish bu avvalo o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda o'quvchlarning o'z fikrlarini erkin tarzda bayon qila olish, kashfiyotlar qilishga, bir xillikdan qochishga, o'quvchilarni faol ishtirok etishga, turli vaziyatlardan chiqib keta olishga undaydi. O'quvchilarning kreativligini oshirishda avvalo, o'quv muhiti, o'qituvchining ro'li, o'quvchilarning kreativligini oshirishga qaratilgan turli metodlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, STEAM ta'limi, interaktiv metodlar, loyihali ta'lim(PBL), muammoli ta'lim va dizayn fikrlash, o'quvchilarni baholashning usullari, individual yondashuv kabilar o'quvchilarning kreativligini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. O'quvchilarning muammolarni yechishi, kommunikatsiya ko'nikmalari, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish orqali kreativlikga yo'natirish mumkin. Shuningdek o'qituvchilarning darsdagi ro'li muhim bo'lib, mentor, fasilitator, darslarda yo'naltiruvchi sifatida nomoyon bo'lish o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zlarini erkin holda nomoyon etishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda kreativ o'qitishning ayni hozirgi holati, darsliklar, o'qitish metodlari, moddiy texnik bazasi, o'qituvchilarning bilim darajasi, baholash tizimlari kabi jihatlarini e'tiborga olgan holda yondashish muhim ahamiyatga ega.

Insonni insoniyligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlaridan biri hisoblangan "kreativ qobiliyat" va "kreativ tafakkur" tushunchalari insonni yuksak

ijodiy imkon sohibi ekanligiga dalolat qilishi bilan birga, ayni paytda shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim belgilardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining takrorlash va mustahkamlash darslarida hamkorlikdagi o'quv muhitini tashkil etish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini rivojlantiradi, ularning shaxsiy o'sishiga yordam beradi, mustaqilligini rivojlantiradi, bu ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida bebaho rol o'ynaydi, shuningdek, o'qituvchining o'zini doimiy ijodiy izlanishda bo'lishga undaydi. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Babayeva.D.R “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”(darslik). -T.: “Barkamol fayz media”, 2018-yil, 220 bet.
2. Vartanova E.L Axborot jamiyatining milliy modellari / Resp. ed va komp,2015-yil <https://ru.wikipedia.org>.
3. Midxatovna .N.Z O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari Academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 938- b.
4. Qo‘lmuminov U.S “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikirlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini modellashtirish jrayoni. Inter education& Global study 2024 yil 211 b.
5. Zakirova N.M “O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari” Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 939-940.
6. Rakhimova, Z., Topildiev, B., Nazarov, S., Kadirova, M., Sobirova, N., Rustamova, M., & Nusratova, K. (2025). Fostering Entrepreneurial Competencies in Higher Education: Trends, Challenges, Legal Issues and Impacts on Student Success. *Qubahan Academic Journal*, 5(3), 114-142.
7. Nusratova, K. (2025). THE ROLE OF INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY SCHOOLS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 350-352.

8. Nusratova, H., & Egamqulova, I. (2022). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH 21 ASR TALABI. *Science and innovation*, 1(B8), 1270-1272.
9. H.Nusratova. O'zbek bolalar adabiyoti tadrijida qissa janrining o'rni (S.Barnoyev asarlari misolida). *Education human life ilmiy jurnal* 2023/1-son. – B.8-18.
10. H.Nusratova. O'ZBEK BOLALAR EPIK POEZIYASI TARAQQIYOTIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI mavzusidagi International scientific-online conference London, 2023, 15-december. – B. 568-573.
11. H.Nusratova. BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING O'RNI. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.213-216.